

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>С.Нематжан, О.А.Акбаров, З.Ш.Нуридинов</b>	
Коммуникативные качества речи .....	742
<b>М.Т.Абдуллатоев</b>	
О'zbek tilining funksional sintaksisi masalalari .....	746
<b>А.Р.Косимов</b>	
Формирование компетенций в изучении русского языка .....	750
<b>N.A.Quldashev</b>	
Ijtimoiy muloqotda o'zbek tilidan foydalanimish .....	754
<b>X.Sharifiddinov</b>	
Aforizm – falsafiy mushohadalar ifodasi .....	757
<b>А.Г.Мухиддинов</b>	
Нейросемиотические механизмы идентификации новшества .....	760
<b>M.A.Xusanova</b>	
O'zbek tilshunosligida idiosistol antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida .....	765
<b>E.I.Ibragimova</b>	
Aksiologik bahoning uslubiy xususiyatlari .....	768
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Neyropsixolinguistik konsepsiylar .....	771
<b>G.Sh.Kaxxorova</b>	
Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni va vazifalari .....	776



**TIL TIZIMIDA YORDAMCHI SO'ZLARNING O'RNI VA VAZIFALARI**  
**МЕСТО И ФУНКЦИИ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ**  
**THE PLACE AND FUNCTIONS OF AUXILIARY WORDS IN THE LANGUAGE SYSTEM**

**Kaxxorova Gulruk Shavkatovna**  
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ingliz va o'zbek til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni, ularning nutqda qo'llanishi, o'ziga xos grammatik shakli va vazifalari xususida so'z yuritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается роль вспомогательных слов в английской и узбекской языковых системах, их использование в речи, их конкретная грамматическая форма и функции.*

**Abstract**

*This article examines the role of auxiliary words in the English and Uzbek language systems, their use in speech, their specific grammatical form and functions.*

**Kalit so'zlar:** yordamchi so'zlar, ingliz tilli, o'zbek tilli, grammatik shakl, grammatik vazifa, grammatik kategoriya.

**Ключевые слова:** вспомогательные слова, английский язык, узбекский язык, грамматическая форма, грамматическая задача, грамматическая категория.

**Key words:** auxiliary words, English language, Uzbek language, grammatical form, grammatical task, grammatical category.

**KIRISH**

Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni turli baholanadi. Ba'zi olimlar ularni yordamchi so'zlar deb hisoblasa, boshqalari qo'shimchalarga yoki nutq bo'lakchalariga tenglashtirib qaraydi. Natijada yordamchi so'zlar alohida turkumlanib, mustaqil so'zlarni o'zaro bog'lashga hamda ularga qo'shimcha ma'nno qo'shishga ko'mak beradigan grammatik kategoriylar sifatida qaraladi.

**ASOSIY QISM. ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Ma'lumki, yordamchi so'zlar aniq bir tushunchani ifodalab kela olmasligi sababli barcha xalqlar nutqida yakka holda qo'llana olmaydi. Shuning uchun ular nomustaqlil so'zlar hisoblanadi.

Yordamchi so'zlar, odadta, bir mustaqil so'zni boshqa bir mustaqil so'z bilan turli munosabatlarda bog'laydi. Ana shu munosabat turlariga qarab o'zbek tilida yordamchi so'zlarni turli tasniflash mumkin. Masalan:

	ko'makchi	bog'lovchi	yuklama
payt	keyin, oldin, beri, sayin	va, ham, hamda	ham, (-u, -yu, -da
o'xshashlik	kabi, singari, yanglig'	go'yo, go'yoki	-dek, -day, -cha
birgalik	bilan	va, ham, hamda	ham

Yuqoridagilardan ko'rinyaptiki, turli turkumga mansub bo'lgan ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalardan ayrimlari shakli har xil bo'lsa-da, ma'nosi bir xildir. Bundan yordamchi so'zlarning turli-tuman munosabatlami ifodalashi jihatidan umumlashgan ma'nno kasb etishi oydinlashadi. O'rni kelganda, yordamchi so'zlar morfemalarga, qo'shimchalarga yaqinlashishi ayonlashadi. Shu jihatdan yordamchi so'zlarni "oraliq uchinchi" deb hisoblaydilar.<sup>88</sup>

<sup>88</sup> Мадраҳимов И. Сўзният серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Тошкент, 1994.

## TILSHUNOSLIK

So'z ko'rinishidagi ko'makchi, bog'lovchi va yuklamani so'zlarga yaqinlashtiradigan omillar, bizningcha, quyidagilardir:

birinchidan, so'z sifatida shaklan alohida ajralib turadi: bilan, uchun, kabi, ammo, lekin, biroq, ham.

ikkinchidan, muqobili boshqa tillarda ham uchraydi: with, for, like, but, and...;

uchinchidan, xususan, ayrim ko'makchilarning sifat, ot, ravish va fe'lidan o'sib chiqqanligi bois lug'aviy ma'nosini saqlaganligi;

to'rtinchidan, ba'zan so'z tarkibidan tushib qolsa-da, o'rni bilinib turishi:

Olov (kabi) qiz deb atashsa agar,

Ko'zlaringga boqardim hayron.

Chunki qancha izlamay har gal,

O'tdan senda topmasdm nishon.

Yordamchi so'zlar grammatik morfemalar kabi mustaqil nominativ funksiya bajarmaydi. Shuning uchun ular o'zi bog'lanib kelgan so'z tarkibida u bilan birga yaxlit birikma ko'rinishida qabul qilinadi va shu holatda gap bo'lagi shakllanishiga xizmat qiladi. Ammo bu xususiyat faqat ko'makchilar uchun xos bo'lib, ko'makchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan so'z birikmasi sifatida namoyon bo'ladi va gap tarkibida sintaktik vazifa bajaradi. Masalan:

**Erta bilan** turaman nahori nashta,

O'ng qo'limda igna-yu tizzamda kashta.

Ushbu qo'shiq matnidan olingan parchada *bilan* ko'makchisi gap bo'laklarini, ya'ni hol va kesimni, -yu yuklamasi esa igna va kashta so'zlarini o'zaro bog'lagen. Demak, bunday vazifani nafaqat ko'makchi va yuklamalar, balki bog'lovchilar ham bajarib kelishi mumkin. Jumladan: To'y tarqagan, **biroq** otarchilar hali ham qo'shiqni tindirgani yo'q edi. To'yboshi mikrafonni oldi-yu, ularga javob berib yubordi.

Ko'proq sintaktik aloqa vositasi bo'lib keladigan ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar shakl yasash xususiyatiga ega emas, yakka holda muayyan so'roqqa javob bo'lmaydi.

Bitta ko'makchi bir gapning o'zida bir necha o'rinda takrorlanib kelishi mumkin, ammo bu xato hisoblanmaydi. Masalan: *Sut bilan kirgan jon bilan chiqar*. (Maqol). Yoki "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar", "Til bilan tugilgan tugun tish bilan yechilmas". Bu kabi maqollarda "bilan" vosita ko'makchisi ikki martadan takror qo'llanmoqda. Har ikkala o'rinda ham ular bir ma'noda – vosita ma'nosida ishlatalig. Ammo, bu tavtologiya hisoblanmaydi. Qaytaga ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ko'makchilar shakli har xil, ma'nosi bir xil bo'lishi sababli ularni o'zaro almashtirib, sinonim sifatida birining o'rnida ikkinchisini qo'llash holati ham ko'p uchraydiki, bizningcha, bunga ularning urg'u olmasligi asos yaratadi. Masalan:

Tirishdim tog'dan oshdim, yorug'lik **sari** yo'l ochdim. (Maqol)

Tirishdim tog'dan oshdim, yorug'lik **tomon** yo'l ochdim. (Maqol)

Bunda sari va tomon yo'nalish ma'nosini anglatuvchi ko'makchilar bo'lib, o'zaro sinonim hisoblanadi. Keltirilgan maqolda sari ko'makchisini tomon ko'makchisi bilan ham ifodalash mumkin. Qaytaga maqolda tomon ko'makchisining qo'llanishi undagi tirishdim, tog'dan so'zlariga tovush jihatdan mos tushib, tavze' (alliteratsiya) san'atining hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada ritmik ohangdorlik, badiiy ta'sirchanlik yanada oshadi. Bu ko'makchilarning har ikkalasi ham ikki bo'g'indan *sa+ri*, *to+mon* ko'rinishida tashkil topgani uchun ritm buzilishi yuz bermaydi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Ko'makchilarning urg'u qabul qilmasligi ularni mustaqil so'zlardan ajratib turuvchi muhim belgilardan biridir. Xususan, sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Bunda urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang jihatidan o'zidan oldin kelgan so'z bilan bir butunlikni tashkil etadi, ammo yozuvda ko'makchi bu so'zdan ajratib yoziladi. Masalan: "Odam so'zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan". Demak, bunda urg'u *bilan* ko'makchisi bog'lanib kelgan so'zi hamda *tuzi* so'zlarining oxirgi bo'g'iniga tushmoqda. Shuning uchun maqolning ikkinchi qismidagi "sinalar" fe'li matndan tushib qolsa ham, ma'noga zarar yetmayapti.

Ayrim hollarda gap bo'laklarining inversiyaga uchrashi natijasida gap ko'makchi bilan tugaganga o'xshaydi. Bu ko'proq maqollarda kuzatiladi, ammo bunda gap bo'laklarining o'rni o'zgargani tufayli shunday holat yuz bergen hisoblanadi:

Tilni bog'la dil bilan,  
Dilni bog'la til bilan.

Ba'zi maqollarda ko'makchining tushirib qoldirilgani sezilib turadi. Bu gapning oxirida ham, o'tasida ham yuz berishi mumkin.

1. Gap oxirida kuzatilishi: "Eldagi gap – dildagi gap" (kabidir). "Iliq so'z – shakar, sovuq so'z – zahar" (kabidir). "Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq" (kabi). "Aytigan so'z otilgan o'q" (kabi).

2. Gap o'tasida kuzatilishi: "Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy (kabi) so'zing bo'lisin", "Issiq kiyim tanni ilitar, (ilitgani kabi). Issiq so'z jonni ilitar". "Ariqni suv bezar, (bezagan'i kabi) odamni – so'z".

Ingliz tilida ham bunday holatni kuzatish mumkin: "A polite devil is more agreeable than a rude saint" (Muloyim shayton qo'pol avliyodan ko'ra yoqimliroqdir).

Ma'lumki, ko'makchilar gap boshida qo'llanmaydi. Ular ko'proq gap o'tasida uchraydi. Ammo bog'lovchi va yuklamalar gap boshida ham, ortasi va oxirida ham qo'llanishi mumkin. Bunday holat esa ingliz va o'zbek tillari uchun baravar xosdir.

### XULOSA

Yordamchi so'zlar grammatik shaklga ega, grammatik ma'no anglatuvchi, muayyan grammatik vazifa bajaruvchi so'zlar sanalishi tufayli ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham muayyan vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan grammatik shakllar sifatida qabul qilinadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959. – 346 с.
2. Базаров О. Частицы в узбекском языке: Дисс.... канд. филол. наук. – Москва, 1983. – 193 с.
3. Burxanov Z.B. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2008. – 130 b.
4. Pardaev A.B. O'zbek tili yordamchi so'z turkumlarining lisoniy tizimdag'i o'rni va lingvopragmatikasi: Filol. fan. dokt...diss. – Toshkent, 2017. – 262 b.
5. Sweet H.A. A new English Grammar. Logical and Historical. – Oxford, 1974. – 543 p.
6. Xoldarchaeva G.S. Ingliz va o'zbek tillarida yordamchi so'zlarni tarjima qilish muammolari // Экономика и социум. – №12 (91). 2.2021. – Б. 1163-1168. www.iupr.ru
7. Yusupov O'. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – T.: Akademnashr, 2013. – 288 b.